

Rys' anabynov' chasov

A. A. AKHMATOVA



OO TUN

Rus adabiyoti durdonalari

ANNA ANDREYEVNA
AXMATOVA



OO TUN

SHE'RLAR, DOSTONLAR, DRAMA



Toshkent
«O'ZBEKISTON»
2021



UO'K 821.161.1-3
KBK 84(2Ros-Rus)
A 90

Rus tilidan

Abdulla Sher, Oygul Suyundiqova, Gulnoz Mo'minova
tarjimasi

Anna Axmatova (1889–1966) XX asr rus adabiyotining eng ko'zga ko'ringan mashhur shoiralaridan biri hisoblanadi. Uning aksariyat she'rlarida oddiylik va soddalik, vatanga sodiqlik hamda sadoqat hukmron bo'lsa-da lirikaga boyligi, musiqiyliги bilan ajralib turadi. Shoirani II jahon urushi yillarida Toshkentda yashab, ijod qilgan va «Toshkent daftari» nomli turkum she'rlar yozgan.

E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu kitobda shoiraning eng go'zal she'rlari, dostonlari va dramasi o'rin olgan. O'ylaymizki, mashhur shoiraning ushbu kitobi siz aziz o'quvchini befarq qoldirmaydi.





* * *

Oh, jim bo'! So'zlaring cho'g'idan abgor
Butun vujudim olov
Hurkak nigohimni ololmayman zor
Men sendan hatto birrov.

Oh, jim bo'! Yosh qalbni titratdi bexos
Notanish nedir butkul.
Endi hayot menga sirli tush xolos,
Unda har bo'sa bir gul.

Nega buncha egilding boshim uzra sen,
Ko'zimdan neni bilding?
Nega yonib ketyapman? Nega cho'g'man men?
Jo'na, oh, nega kelding?

1904–1905



* * *

G'azabdan qutimiz o'chib, dil dog'lik,
Qaqshab, bir-birovni la'natlagan dam,
Bizlar bilmas edik hali: ne chog'lik
Ikki kishi uchun torligin olam

Va achchiq xotira qiynashin boz-boz,
Isitmaga o'xshash iztirob har tun
Yurakni undashin: titrab, beovoz –
«Qayda u ketgan do'st?» deb so'rash uchun.

Goh sirli ovozlar olar ekan so'z
Sehrli tasavvur tumani aro,
Qismatimga kirgan o'sha bir juft ko'z
Yurakni teshgudek boqar doimo.

1909



* * *

Sig'inaman darcha nuriga, –
Go'yo rangpar nazokatdir ul.
Tongdan g'arqman sukut siriga,
Yurak esa chilparchin butkul.
Obdastaga qarayman, obdan
Ko'kish tusga kirmish sariq mis.
Jilvalanar unda nur hamon,
Har boqishda uyg'onar bir his.
Garchi oddiy, shunchaki u nur
Tun sukuti qo'ynida, ammo
Bo'm-bo'sh go'sham aro u surur,
Ruhim uchun go'yoki bayram
Va shirin bir tasallo.

Kiyev, 1910

U SEVARDI...

Sevar edi dunyoda uch narsani u:
Qorong'uda kuy tinglash, oppoq tovus-u,
Amerikaning siyqa xaritasini,
Yoqtirmasdi bolalar yig'isin asti,
Maymunjonli choyni ham jini suymasdi,
Chidolmasdi ayollar jazavasiga...
Men esa o'shaning xotini edim.

Kiyev, 1910



KULRANG KO'Z QIROL

Sharaf senga, azobli xayol!
Kecha o'ldi kulrang ko'z qirol.

Kuzgi oqshom qizg'ish, dim edi,
Erim kelib ohista dedi:

«Keltirishdi jasadni ovdan,
Topishibdi bolut tubidan.

Qirolicha yosh edi. Afsus!..
Bir kechada sochi – kumush tus».

Chubug'ini topdi-da, so'ng jim
Tungi ishga yo'l oldi erim.

Men uyg'otay qizimni suyub,
Boqay kulrang ko'ziga to'yib.

Bog'da esa teraklar titrar:
«Qirolingdan ayrilding, dilbar!..»

Sarskoye Selo, 1910

* * *

Sen-ku, shuhrat, oqqushdek suzding
Tillolangan tuman oralab.
Lekin sevgi, sen meni ezding
Umidimni tilka-poralab.

1910

* * *

Qo'lim qisdi o'rtik ostidan...
«Muncha ranging oppoq, o'rtoqjon?»
– Bugun uni ishqim dastidan
G'am mayiga to'ydirdim obdon.

Unutmasman. Ketdi, yo Xudo,
Gandiraklab, gangib – bir ahvol...
Uchib tushdim zinadan go'yo,
Darvozaga yetdim-u, darhol

Men qichqirdim hansirab: «Bari
Hazil. Ketsang – menga hayot yo'q».
Sal titradi qonsiz lablari:
«Qarshi turma shamolga, sovuq».

Kiyev, 1911



* * *

Yurakda susayar quyoshning yodi,
O't-o'lan – za'far.
Shamolda ilk qorning shashti va toti
Sal-pal sezilar.

Endi tor ariqlar mudrashar hissiz –
Suvlar yotag'on.
Bu yerda hech narsa ro'y bermas, esiz,
Endi hech qachon!

Bo'm-bo'shlik qo'ynida bargsiz yolg'iz tol
Yelpig'ich bu kez.
Yaxshi ish qildim men – bo'lmay, ehtimol,
Sizning juftingiz.

Yurakda susayar quyoshning yodi.
Ne bu? Qora tun? –
Ehtimol!.. yetarli bir tun hayoti
Qish kelish uchun.

Kiyev, 1911



OQ TUNDA

Qulflamadim eshikni ham,
Shamlarni ham yoqmadim,
Charchamayin qancha bu dam,
To'shagimga boqmadim.

Mana, shafaq o'char asta
Igna barglar oralab,
Senikiga o'xshash sasdan
Mast bo'laman men qarab

Va bilaman bari barbod,
Bu hayot do'zaxga zeb !
Men ishongan edim, hayhot,
Ortingga qaytasan deb.

Sarskoye Selo, 1911



* * *

Qalbimni ichyapsan naychadan go‘yo,
Bilaman, sen taxir ta‘midan kayfda.
So‘z qo‘shib, qiynoqni buzmasman ammo,
Oh, sukutim umri bir necha hafta.

Ichib tugatsang ayt. Chekmasman oh-zor
Qalbim yo‘qligidan dunyoda u kun.
Eng qisqa yo‘l bilan borgayman takror
Bolalar o‘yinin kuzatmoq uchun.

Qorag‘at gullagan bo‘ladi u dam
Va kimdir uzoqda g‘isht tashir yakkash.
Sen kimim – jazmanmi va yoki akam?
Sira eslolmayman, nechun ham eslash!

Naqadar yorug‘-u panohsiz bu yer,
Vujuddan horg‘inlik ariydi butkul.
O‘tkinchilar esa o‘zlaricha der:
Sho‘rlik, kuni kecha qolibdi-da tul.

Sarskoye Selo, 1911



* * *

Nim ochilgan eshikdan
Jo'kilar bo'y ufurar.
Qo'lqoping xivchin bilan
Stol ustida turar.

Shitirlaydi nimadir,
Chiroq – sarg'ish doira.
Nega sen ketding, axir,
Tushunolmayman sira...

Ertaga tong otajak,
Sochib quvonch, oltin hal.
Oqil bo'lsang-chi, yurak,
Boq, hayot qanday go'zal! –

Ayt, ne uchun bu «chim-chim»,
Har urishing bo'g'iq uh...
Bilasanmi, o'quvdim
O'lmaydi sira deb ruh.

Sarskoye Selo, 1911



* * *

Men shunchaki bu yerga keldim,
Farqsiz – qayda zerikmoq bu kun!
Do'ngda mudrar yeltegirmon jim.
Yillab bunda jim qolmoq mumkin.

Qovjiragan pechakdan ilinj –
Mayin qanot qoqar bolari;
Suv parisin chorlayman, ko'l – tinch,
Bilamanki, o'lgan ul pari.

Baqasalla, o't xurujidan
Ko'l ham sayoz – na ko'rk, na chiroy.
Tog'terakning titroq uchidan
Yalt etadi yengil to'lin oy.

Bari yangi tuyular bu choq,
Teraklarda namchil bo'y turg'un.
Men esa jim. Jimman, ey tuproq,
Yana senga aylanmoq uchun.

Sarskoye Selo, 1911



* * *

Soat kakkusidek yashayman, shu bas,
O'rmon qushlariga qilmayman havas.
Burasalar – «kak-ku»layman.
Bilasanmi, men tilayman
Dushmanga faqat
Shunaqa qismat.

Sarskoye Selo, 1911

QO'SHIQ

Kun chiqar payti yolg'iz
Ishq haqida kuylayman,
Tomorqada cho'kib tiz,
Sho'rani ham ho'llayman.

Yulib otaman so'ngra, –
Mayli, uvoli manga.
Ana, bir qizcha ho'ngar
Manglay bosib chetanga.

Falokatning omonsiz
Sasidan titrar o'yim.
Tobora anqir jonsiz
Sho'raning iliq bo'yi.

Bo'lgay yovuz mukofot
Non o'miga chaqir tosh.
Boshimda gung samovot,
Faqat ovozing darddosh.

Sarskoye Selo, 1911

* * *

Esdan og'dim, g'alati o'g'lon,
Chorshanba kun uchda banogoh!
O'rta barmog'imni o'sha on
Bir jarangdor ari chaqdi, oh!

Ezib oldim men uni bilmay,
O'lgan kabi ko'rindi, biroq,
Ul zaharli nish uchi bay-bay,
Ninadan ham ekan o'tkirroq.

Yig'larmanmi seni deb, o'g'lon,
Jilmayishing yo bo'lgay nasib?
O'rta barmog'imni, boq, bu on
Silliq uzuk turibdi qisib.


1911

* * *

Oh, o'yinchoqqinam, yana birgamiz,
Bu gal ham opachang bo'layinmi, ayt?
Soatga berkingan kakku endi tez
Chiqar-u, der: «Keting, keldi payt!».

Tinglayman, gaplaring vaznsiz ukpar.
Afsus, o'rganmabsan sukutni hamon.
Bilaman, kulrang ko'z sendek bolalar
Quvnoq yasharlar-u, o'lrlar oson.

Sarskoye Selo, 1911



* * *

Men xandonman, chunki sen sarxush –
Gaplaringda sira yo‘q ma‘no.
Osmish, qara, erta kuz sarg‘ish
Tug‘larini yaproqlar aro.

Yolg‘onkentda chekamiz afsus
Borib olib ikkimiz birga.
Biroq nega jilmayamiz sust, –
Yuzlar o‘xshab qotgan chandirga.

Bizlar silliq baxtnimas, inon,
Istagandik tig‘dor sitamni...
Tark etmasman, lekin, hech qachon
Men shu bebosh do‘sti mahramni.

Parij, 1911



SO'NGGI VISOL QO'SHIG'I

Yaxlab borar ko'ksim tobora,
Ammo o'zim yengilman qushday.
O'ng qo'limga kiydim ilk bora
Chap qo'lqopni xuddi sarxushday.

Hisobsizdek zinalar go'yo,
Uchta edi – bilganim avval!
Kuz shiviri zaranglar aro
Dedi: «Birga o'laylik, go'zal!

Men aldandim nursiz, bekaram
O'zgaruvchan yovuz taqdirga».
Javob berdim: «Azizim, erkam!
Men ham sendek. O'larmiz birga!..»

So'nggi visol qo'shig'idir bu.
Uy tomonga o'grildim bir dam:
Befarq-sarg'ish sochardi yog'du
Yotoq ichra faqat xira sham.

Sarskoye Selo, 1911



* * *

Erim savaladi men bag'ri xunni
O'rma qayishini qo'shqavat qilib.
Deraza raxida o'tkazdim tunni
Sen uchun sham yoqib, yo'lga tikilib.

Tong ham yorishmoqda. Ustaxonadan
Ko'kka o'rlay boshlar ko'kish tutun ham.
Sen esa bu tutqun g'amdiydang bilan
Birga bo'lolmading, esiz, bugun ham.

Biror kun yorug'lik ko'rmadim aslo,
Seni deb, azoblar – qismatdir menga.
Ayt, kumush kokilli ma'shuqangmi, yo
Oltin soch dilbaring yoqar didingga?

Sizni qanday tutay, yangroq nolalar!
Bo'g'iq bir sarxushlik dilni qon aylar,
Quyosh nuri esa, xuddi tolalar,
Taxi buzilmagan choyshabda yayrar.

1911



BOG‘

Zap charaqlab sal-pal qimirlar
Qirov quchgan bog‘.
Ketgan yigit ma'yus shivirlar,
Qaytolmas biroq.

Quyosh esa, tussiz dumaloq
Deraza ko'zi,
Men bilaman, unga kim bir choq
Singdirmish o'zin.

Bunda orom tugar urinib,
Keldi qora his.
Yupqa muzdan turar ko'rinib
Kecha tushgan iz.

Gung dalaga tushadi tolga
Oyning nigohi.
Ko'kda qotar galadan qolgan
Turnaning ohi.

1911



SEVGI

Goh ilondek kulcha bo'lib,
Naq yurakni jodular.
Goh bo'g'otda shavqqa to'lib,
Oq kaptardek «g'uv-g'uv»lar.

Goh qirovda yalt-yult etar,
G'uncha bo'lib mudrar goh...
Quvonch, tinching olib ketar
Sezdirmasdan banogoh.

Biram shirin oh chekar, oh,
G'ijjak ingragan zumda.
Mushkul uni tez ilg'amoq
Notanish tabassumda.

Sarskoye Selo, 1911



PARCHA

...Kimdir daraxtzordan shunda berdi sas
Ko'rinmay, uzilgan bargdek jonsarak:
«Boq, seni holga solmish u nokas,
Sevaman deganing, o'sha ko'mamak!

Qovog'ing shunday zil, ikki tosh go'yo,
Ko'milmish salqilik va qoralarga.
Sevingni sotdi u qilmasdan parvo
Zaharlashga usta makkoralarga.

Ko'pdan zarb hissini bilmaysan, abgor,
Ko'ksing ilma-teshik, nishtarlardan dog'.
Xursand ko'rsatasan o'zingni bekor, –
Tirik go'rga kirgan bundan afzalroq!»

Nomardga dedim men: «Ichiqora, quv,
Beti yo'q ekansan, uyatsiz, badho'y.
U royish, u yumshoq, gap qaytarmas u,
Dunyoda meni deb yashar, bilib qo'y!»

1911



* * *

O'rgandim yashashga oqil-u sokin,
Osmonga boqishga ibodat qilib
Va shomda uzoq vaqt kezishga, tokim
Befoyda hayajon tolsin ezilib.

Jarlikda qariqiz shildirar choqda,
Chetanning g'ujumi sollangan payti,
O'tkinchi va go'zal bu hayot haqda
Quvonchli she'rlarni, quvnayman, aytib.

Qaytaman. Ikkala kaft orasida
Mushugim silanar mehri tovlanib,
Taxtatiluvchilik minorasida,
Ko'lni yoritadi, chirog' ham yonib.

Faqat sukunatni bir zum titratar
Tomga qo'na solib qichqirgan laylak.
Bu payt eshigimni taqillatsang gar
Hatto eshitmasam, sezmasam kerak.

Florensiya, 1912



* * *

N. Gumilyovga

Jildimda kitoblar, qalam-u daftar,
Maktabdan uyimga qaytardim beg'am.
Mana bu jo'kilar, ehtimol, eslar
Bizning uchrashuvni, quvnoq yigitcham.
Endi-chi, o'zgarib kulrang polapon
Bo'ldi-yu dimog'dor, kibrli oqqush, –
Mening hayotimga o'chmas nursimon
G'am qo'ndi – ovozim jarangsiz tovush.

Sarskoye Selo, 1912



– Men o‘ringga keldim, opajon,
Shohid yuksak gulxan-u o‘rmon.

Soching oppoq. Ko‘zingni, qara,
Yoshlar qilmish nursiz-u xira.

Tushunmaysan qushlarni bugun,
Yulduzlar-u chaqmoqni nigun.

Eshitmassan doirani ham,
Jimjitlikdan qo‘rqasan bu dam.

Men o‘ringga keldim, opajon,
Shohid yuksak gulxan-u o‘rmon.

– Kelibsan sen meni ko‘mgani
Belkurag-u cho‘kiching qani?
Qo‘lingda bor faqatgina nay,
Nechun seni ayblay men, zero,
Ko‘pdan o‘chgan ovozim, netay, –
Achintirmas hech kimni aslo.

Ust-boshimni olginda kiyib,
Tashvishimni mening unut, qo‘y,
Shamolga ber zulfingni yoyib,
Sen ajibsan, sen nastarin bo‘y,
Sen kelgansan, axir, ko‘p yurib,
Yashnash uchun bunda barq urib.

Keyin ketdi bir o‘zi yolg‘iz
O‘min berib shunday o‘zgaga,
U tentiydi ko‘zlari ojiz
Kimsa kabi, sochi to‘zg‘igan

Nazarida alanga yaqin...
Doirasi qo'lida naq cho'g'...
U oq bayroq, u go'yo chaqin,
U mayoqning nuridek yorug'.

Sarskoye Selo, 1912

* * *

Biz hammamiz bunda shakkok, mast,
Quvonch uzoq bizdan naqadar!
Devordagi gulda sayramas
Bulutlarni sog'ingan qushlar.

Qora chubuq og'zingda, biroq,
Tutunida uning sir borday.
Ko'rinay deb yana xipcharoq,
Men tor yubka kiyganman atay.

Hamma darcha mixlangan bunda,
Bilmam tashda qishmi yo bahor.
Ko'zing pusgan mushukning tunda
Qarashidek yaltirar ayyor.

Yurak shunday siqilarki, oh!
O'limnimi kutyapman bu dam?
Raqsda uchgan olov qizga boq, –
Uni kutar beshak jahannam!

1912



* * *

Qay tarzda bu qora sochga iloniz
Bir tutam oq tola o'rlab, bo'lmish jo, –
Ey sassiz bulbulim, sengina yolg'iz
Bilasan nimadan bu dard, bu savdo.

Seni olis ovoz torttirar sergak
Va oqtol shoxiga, nedandir ogoh,
Hatto nafas olmay, bo'lib g'ujanak,
Qaraysan yangrasa yot qo'shiq nogoh.

Bundan sal oldin-chi, sal avval, ammo,
Atrofdan teraklar qotganda shabrang,
Had bilmas quvonching yangrardi tanho
Kuyidan taratib zaharli ohang.

1912



* * *

Qara, o'Imoqdaman o'lmaslik tilab,
Pastlatmsish bulutni hatto tim g'ubor...
Qaniydi ko'rinsa atrofda alaf
Yo badbo'y qatronmi, yo qizg'ish devor.

Sudralib chiqinglar, siz, quv olomon, –
Qadim kitoblardan do'qlar, bo'lib jam,
Siz faqat hushimni qoldiring omon,
Eng so'nggi damgacha qolsin xotiram.

Toki azoblarning silsilasiga
Yot bo'lmasin deya sening buguning, –
Men yuzni beraman bir hissasiga
Bir bor jilmayish-u, bitta orzuning.

So'ng asta yaqinlar engashib o'lim,
Shaffof simobini menga ichirgay,
Odamlar esa-chi, kelib ko'mar jim
Ovoz-u tanimni, jim, birvarakay.

Sarskoye Selo, 1912



* * *

Sevilgan yurakda qanchalar xohish!
Tashlandi ayolda xohish bo'lmagay.
Xursandman: suvda ham to'xtadi oqish,
Qotdi muz ostida xuddi o'lganday.

Yo Rabbim! Yordam ber, qo'yaman oyoq,
Mana shu yorug' va mo'rt muzga bugun.
Sen-chi xatlarimni asraki shundoq,
To qolsin xotira avlodlar uchun.

Unda sen yana xam ravshan-u yaqqol
Ko'ringin dono-yu mard bo'lib har choq.
Axir, bu obro'li tarjimai hol,
Qoldirmoq mumkinmi birorta oq dog'?!
Qoldirmoq mumkinmi birorta oq dog'?!

Hayotning gulobi totli naqadar,
Muhabbat to'ridan chiqolmas hech jon.
Mayliga, ismimni bilsin bolalar,
Darslik kitobidan o'qib bir zamon.

Va g'amgin qissadan muta'sir u vaqt,
Ma'nodor tikilib, jilmaysin xiyla.
Mayli, bermasang ham sevgi bilan baxt,
Achchiq shuhrat bilan nomimni siyla.

1912



* * *

Ovozim sust, lekin sustmas irodam,
yengil tortgandekman sevgisiz go'yo.
Esar tog' shamoli, nekbin osmon ham,
Tozayu bokira o'ylarim hatto.

Hamshiram bedorlik do'st topdi o'zga,
Meni xo'rsintirmas kunlarim kuli
Va yoyning o'qidek ko'rinmas ko'zga
Minora soatin qiyshaygan mili.

O'tmish o'tkazolmas hukmin yurakka!
Barin kechirgayman erk tomon yurib,
Bahoriy nur qanday namxush pechakka
Rang berib, o'ynashin kuzata turib.

Sarskoye Selo, 1913



* * *

Kelibsan, azizim, meni ko'rishga,
Biram muloyimsan, biram yupatgich.
Menda-chi to'shakdan hol yo'q turishga,
Derazamning esa panjarasi zich.

Chamasi o'ldi deb meni o'ylibsan,
Qo'lingda ajoyib suluv gulchambar.
Yurakni o'rtaysan jilmayish bilan,
Yuzingda dovdirash va andak g'am bor.

Endi hech narsamas o'limi men uchun!
Yonimda bo'lsayding yana bir muddat,
Xudodan olardim so'rab sen uchun
Va sen yaxshi ko'rgan odamga rahmat.

Peterburg, 1913



* * *

Tasavvurim chizishga majbur,
Kulrang ko'zlar tasvirini bot.
Tverdagi go'shamda chuqur,
Alam bilan Sizni etdim yod,

Neva nahrin chap qirg'og'idan
Menga: «Bo'ldi, borgin-da, o'ldir
O'z sevgingni!» deya buyurgan,
Go'zal qo'lga ey baxtli asir,

Mashhur yurtdosh, qiling tantana:
Xohishingiz bo'ldi-ku bajo!
Men bemajol so'laman, mana,
Qonda sog'inch zo'rayar ammo.

Agarda men, ayting-chi, o'lsam,
She'rlar yozar kim Sizga u kun.
Jaranglashga kim berar yordam
Aytilajak so'zlarim uchun?

Slepnyovo, 1913



* * *

Mana-mana – chang‘ilar takror
Tezda g‘ichirlay boshlar.
Moviy ko‘kda sariq oy bedor,
O‘tloq qiyalab yashar.

Yorug‘ saroy derazalari
Sukutda qolar yiroq.
Muztashikning faqat tund qa‘ri,–
Na bir yo‘l bor, na so‘qmoq.

Suvparilar daraxti, ey tol;
Qor sochma yonog‘imga!
Qora-qora zag‘chalarni ol,
Ol oppoq quchog‘ingga!

Sarskoye Selo, 1913



Qubbalari cherkovning birday
Osmon bilan talashadi rang...
Kechir, quvnoq yigitcha, bilmay
Senga o'lim keltirdim, attang, –

Gulchi qizdan olgan gullar-u,
Xatingdagi zo'r so'zlar uchun
Va qoracha titroq qo'llar-u,
Ishq ko'r qilgan ko'zlaring uchun.

O'ylabmanki, seni atayin
Kattalarga taqlid qilgan deb,
Bo'lmaydi deb mendek betayin
Bir ayolni qayliqdek sevib.

Lekin bo'ldi hammasi bekor.
Sovuqlikni aniq sezganda,
Meni hissiz kuzatding bedor
Endi har vaqt, har bir maskanda.

Sanagandek sevmasligimining
Har belgisin yig'arding go'yo.
Kechir! Kirding gapiga kimning
Azob yo'lin tanlab benavo?

Bilmam, o'lim qanday qo'l cho'zgan...
Ayt, ne bo'ldi senga o'sha payt?
Men bilmabman ko'k yoqa to'sgan
Bo'yning shuncha nozikmidi, ayt?

Kechir quvnoq yigitcha, nigun, –
Sho'rlik mening polaponginam!
Menga chiqib cherkovdan bugun
Uyga qaytish og'ir juda ham.

Sarskoye Selo, 1913

* * *

Biz birga ichmaymiz bitta idishdan
Eng shirin mayni-da, suvni-da hecham.
Biz emas sahardan chanqab o'pishgan,
Biz emas darchadan shomga boqqan ham.
Sen quyosh o'g'lisan, men oynning qizi,
Lekin bitta sevgi mast qilar bizni.

Sodiq va mehribon do'stim – men bilan,
Sen bilan sho'x yoring doimo birga.
Biroq ohlarimning sababi sensan,
Men sabab ko'zingda berkingan sirga.
Qisqa uchrashuvlar doim omonat,
Shu taxlit nomlarni qo'riqlar qismat.

Yashaydi she'ringda qalbim shivirlab,
She'ringa jon berar sen olgan nafas.
Zotan, bir gulxan bor, yonar gurillab,
Uni vaqt-u qo'rquv o'chira olmas.
Bilsang, oh qanchalar qadrli bugun
Quruq va pushtirang labing men uchun!

1913



* * *

Bu tutqunlik, bilasan, azob,
O'lim tilab yashayman noshod,
Lekin menga Tverning xarob
O'sha yeri suyuk xotirot.

Ko'hna quduq uzra havoza,
Tepasida ko'pirgan bulut,
Dalayoqda kichik darvoza,
Bug'doy hidi, g'ussa behudud.

Esd a o'sha kengliklar, g'ubor,
Besas edi hatto shamollar
Va boqardi bizga ta'navor
Kun qoraytgan dehqon ayollar.

Slepnyovo, 1913

* * *

Yigitcha dedi menga: «Oh, qanday azob!»
Men achindim unga juda ham.
Sal avval hayot edi unga zavqiyob,
Faqat eshitgan edi borligini g'am.

Endi u hammasini biladi a'lo
Siz dono-yu keksalar misol.
Ko'zlari xira tortdi, kichraydi hatto
Porlab turgan qorachiq, nursiz-u behol.

Men bilaman: chidolmas bu dardga shaksiz,
Ilk sevgining dardi bedavo.
Shoshib-yonib silar u xastahol, ojiz
Mening sovuq qo'limni bejo.

1913

* * *

V.S. Sereznyovskayaga

Donishmandlik oʻrniga, ilimiliq pand, –
Chanqoqni hech bosmagay.
Yoshlik – yakshanba kungi ibodatmonand...
Uni qanday unutay?

Birga oʻtdim qanchalab yoqimsiz yoʻlni
Suymagan yorga tutqun,
Qancha qoʻydim koʻksimga cherkovda qoʻlni
Oʻzim sevgan mard uchun.

Bugun barcha esardan sustdir xotiram,
Yillar – oqova goʻyo.
Oʻpilmagan labni ham, shoʻx koʻzlarni ham
Qaytarib boʻlmas aslo.

Sarskoye Selo, 1913



* * *

Ko'rindi bojxona, uniqqan bayroq
Va shahar osmoni – xira, sarg'ishtob.
Yuragim urishi sustlashdi shu choq,
Nafas olishimning o'zi bir azob.

Qani, dengizbo'yi qizchasi bo'lsam
Tuflini ilgancha yalang oyoqqa,
Tag'in chambar qilib sochimni o'rsam,
Tag'in qo'shiq aytsam tushib titroqqa.

Xersones cherkovi qubbalaridan
Ko'zimni olmasam to'ymasdan pastda
Va unutsam baxt-u shuhrat – baridan
Qariyotganini yurakning asta.

1913



* * *

Salom! Sen sezdingmi yengil shitirni
O'ng tomoningda?
Tugata olmaysan boshlab satrni,
Menman yoningda.

Nahot vayron qilsang yana dilimni
Yuzingni burib, –
Ko'rmaganga olib yuz-u qo'limni
Tikilib turib?!

Bu yer yorug'! Qolay sen bilan,
Quvma nariga, –
Dim ko'prik ostida sasib-bijg'igan
Suvning qa'riga.

Sarskoye Selo, 1913

* * *

Sen bilan ichmayman sira birga may,
Chunki sen shumtaka bolasan faqat.
Bilaman, kim to'g'ri kelsa, qaramay,
Oydinda o'pishish sizlarga odat.

Bizda esa – olam guliston,
Royishlikdan ko'ngil to'q.

Bizda esa – odob hukmron,
Tik qarashga ruxsat yo'q.

1913

* * *

Asl mehr o'zgacha, uni
Chalkashtirib bo'lmas hech qachon.
Sen behuda yelkam, ko'ksimni
O'rayapsan silab, mehribon.
Ilk muhabbat haqida bekor
Aytayapsan sen royish so'zlar:
Bilaman-ku naqadar ayyor
Ekanini bu to'ymas ko'zlar.

Sarskoye Selo, 1913

* * *

Tark etaman sokin bog', uyingni bu on,
Toki bo'lsin hayoting yorug' va bo'm-bo'sh.
Senga ayol tarzida keltirmadim shon
Va lekin sharaflayman she'rimda dilxush.
Endi sen eslagaysan meni doimo
Sen o'zing menga atab qurgan jannatda,
Men-chi, noyob mol bilan qilaman savdo –
Men sotaman sevgingni endi xilvatda.

Sarskoye Selo, 1913



* * *

Mayda tasbeh bo'ynimni bezar,
Qo'llarim ham momiq yeng ichra
Javdiragan sarosar ko'zlar
Endi boshqa yig'lamas sira.

Ko'rsatadi pushtirang ipak
Yuzlarimni yana ham rangpar
Va jamalak peshonagajak
Qoshingacha naq tushib turar.

O'xshamaydi parvozga aslo
Bu xiromim sokin, bemajol,
Oyog'imning ostida go'yo
Parket emas – chayqaladi sol.

Rangpar og'zim salgina ochiq,
Marom bilmas nafas yo'llari,
Titrab, qo'zg'ar ko'ksimda sanchiq
Ro'y bermagan visol gullari.

1913



* * *

Buralardi qop-qorong‘u yo‘l,
Tomchilab yomg‘ir.
Kuzatayin deb uzatdi qo‘l
Men tomon kimdir.

Xo‘p, deb, chiqdi yodimdan, biroq,
Unga bir qarash.
Qiziq edi keyin eslamoq
U yo‘lni yakkash.

Ming tutatqi taratgandek dud
Quyuyqdir tuman.
Qildi dalli hamrohim behud
Qo‘shig‘i bilan.

Yog‘och eshik yodimda hamon,
Yo‘l so‘nggi cdi.
Shunda meni kuzatgan inson
«Kechirgin...» – dedi.

Keyin menga mis xoch berdi u,
Go‘yoki akam...
Dasht qo‘shig‘i quloqda shu-shu
Yangrar hozir ham.

O‘z uyimda o‘xshayman yotga,
G‘am ezar meni.
Ey notanish, quloq sol dodga,
Izlayman seni!..

1913

* * *

Men tug'ildim na erta, na kech
Bu baxtli on va lekin Xudo
Yashamoqni yolg'on aytmay hech
Yuragimga ko'rmadi ravo.

Shundan yorug' uyimda zulmat,
Shu sababdan do'stlarim labi
Kuylar abas sevgidan faqat
Mungli oqshom qushlari kabi.

1913

* * *

Oddiy odob yuzasidan sen
Jilmaydingda, yonimga kelib, –
Sal muloyim, andak erinchoq,
Qo'llarimni o'pding egilib, –
Shunda qadim sirli nigohlar
Tikilgandek bo'ldi yuzimga...
Men o'n yillik azob va ohlar,
Bedor tunlar dardin so'zimga
Joladim-da, shivirlab ilk bor
Aytdim senga – behuda ammo.
Uzoqlashding va qalbda takror
Bo'ldi sokin bo'm-bo'shlik paydo.

1913



* * *

Yangi bir xavotir har bir yangi kun,
Tobora o'tkir bo'y pishgan javdar ham.
Poyimga boshingni qo'ydingmi maftun,
Endi shunday yotaver, erkam.

Yuksak zaranglarda shod zarg'aldoqlar,
Ular to tonggacha tinmaydi sayrab.
Ko'm-ko'k ko'zlaringdan menga hushyoqar
Arilarni haydab o'tirmoq.

Mana, jaranglaydi yo'lda chirmanda,
Bizga tanish edi bu sas bir palla.
Yig'lama, deb senga, bu kech, arzandam,
Ayriliqdan aytaman alla.

1913

* * *

Sevmaysanmi, qaramaysan ham?
Chiroylisan qanday, la'nati!
Ucholmayman men uchay desam,
Bolalikda edim qanotli.

Qora bosdi – narsa, aft-angor...
Rang qorishib ketdi bir yo'la.
Ko'z o'ngimda faqat lola bor,
Ko'ksingdagi qip-qizil lola.

1913

QOCHISH

O.A. Kuzmina-Karavayevaga

«Jonim, faqat yetib olsak bas
Dengizgacha!» – Gapirma, jim bo‘l...»
Zinadamiz, entikar nafas.
Tushdik. Titrar kalit tutgan qo‘l.

Qachonlardir raqsga tushib shan,
Biz may ichgan binodan nari,
Senatning oq ustunlaridan
O‘tib ketdik qorong‘u sari.

«Oh, esi yo‘q, ne qilganing bu!» –
«Bas, men seni sevaman xolos!
Kuchli shamol, boq, bir omad-ku!
Kema yayrab, safar bo‘lur soz!»

Tomog‘imni dahshat sidirar,
Qayiq o‘nglar eshkaklarini...
Sho‘r arqonning hidi kuydirar
Titroq burun teshiklarini.

«Menga ayt-chi, sen bilsang kerak!
Uyg‘oqmanmi? Bu tushmasmi, ayt...»
Bir maromda sas berar eshkak
Nevadagi mavjlarda bu payt.

Tun oqarar, asta tong otar,
Bizni chorlar ko‘prikdan kimdir,
Siqqanimdan qo‘limga botar
Ko‘ksimdagi salibli zanjir.

Olib chiqding qizchadek yengil
Men zaifni bosib quchoqqa,
Oppoq kema sahnida yakdil
Baxtli kunni kutib olmoqqa.

Slepyovo, 1914

* * *

Qish tunida yashirin bizni
Nikohlagan Pok Malak o'zi
Kuzatib shan hayotimizni,
Hanuz boqar tinsa ham ko'zi.

Shundan bizga suyuqdir osmon,
Toza havo, yellar, yiroqlar
Va panjara ortida pinhon
Sal qorayib turgan butoqlar.

Shundan bizga suyuqdir sersuv,
Salobatli qoramtir shahar,
Shundan suyuq qisqa uchrashuv
Va cho'zilib ketgan hijronlar.

Peterburg, 1914



Hech qaydan topmadim sevgan yorimni:
Qanchalab yurtlarni kezdim behuda.
Kelib men Egamga aytdim zorimni:
«Egam, go‘zal ekan, ha, yering juda.

Moviy dengizlarda rohatlandi tan,
Xumor-u jarangdor kuyladi qushlar.
Ona yurtda esa mayin qirovdan
Qora kokilimga qo‘ndi kumushlar.

Olis cherkovdagi rohiblar unda
Ibodot qilishar qiroat ila.
Bilaman, ushbu yer yorilgan kunda
Pastga ko‘z tashlaysan malomat ila.

Men, Egam, bajarib ahd-u qarorni,
Da‘vatingga javob berdim doimo
Va eslab qololdim yeringda borni,
Hech qaydan yorimni topmadim ammo.

1914



MEHMON

Bari o'sha, to'zg'ir qorbo'ron, –
Mayda qordan «tars-turs» derazam,
Men ham o'sha, o'shaman hamon,
Faqat yo'qlab kelmish bir odam.

«Ne istaysan?» – dedim tikilib.
Dedi: «Birga do'zaxda bo'lsak».
«Oh, qurmagur, – dedim men kulib, –
Bir baloni boshlasang kerak».

Biroq, qo'lin ko'tarib atay,
U gullarga tegdi bepisand:
«Ayt-chi, seni o'parlar qanday,
Ayt-chi, o'zing qanday o'pasan?»

U biroz tund tikib ko'zini
Uzugimdan olmasdi bu dam.
Yorug'lashgan qattiq yuzining
Qilt etmasdi bir mushagi ham.

Ah, ishonchim komilki shunga, –
U zo'r berib bilmoq bo'lar, bas,
Kerak emas hech narsa unga,
Menga esa yo'q deyish shartmas.

1914



* * *

U rashkchi, serxavotir, g'amxo'r edi zap,
Sevgisi eslatardi Tangrim quyoshin.
Lekin xit qilmasin, deb, kechmishni kuylab,
Oqqushimni o'ldirdi shart uzib boshin.

Dedi kelib g'urubga og'ganda quyosh:
«Meni sev, kulib yasha, she'rlaringni yoz!»
So'ng quvnoq oqqushimni quduqqa yondosh
O'sgan qayin ostiga ko'mdi sarafroz.

So'z berdim yig'lamayman deb unga qayta,
Shu-shu toshga aylandi ko'krak qafasim,
Lekin quloqlarimda, yurmayin qayda,
Yangrab turar qushimning ruhafzo sasi.

1914

* * *

Sen qanday Nevaga qaray olasan,
Ko'prikka chiqishga qanday haqqing bor?
Tanishgan kunimdan buyon sen bilan
Munglug' degan nomni olmadim bekor.
Qora farishtalar qanoti keskir,
So'nggi savol-javob ro'y bergay darrov
Va qizil maymunjon gulxani bir-bir
Qorda atirguldek yonajak lov-lov.

Peterburg, 1914

* * *

So'ramayman sevingni, ayon:
U ishonchli qo'ldadir bu dam.
Qaylig'ingga yozmayman, ishon,
Rashkda yonib achchiq xatlar ham.

Biroq tingla maslahatimni;
She'rlarimni ber, o'qisin u,
Saqlab qo'y, deb ber suvratimni, –
Kuyovlarning odati-ku bu!

Tantiqchalar uchun bil, zotan,
Qadrlidir to'liq g'alaba
Shirin do'stlik suhbatlari va
Ilk visolning xotirasidan...

Mayda baxtning chaqalarini
Sarflab bo'lgach suyuk yoringga,
Ko'rging kelmay qolsa barini –
Befarq bo'lib yo'g'-u boringga,

Tantanali tunimga u payt
Kelma. Seni ko'rish nasibmas:
Qanday senga ko'maklashay, ayt? –
Axir bu baxt meni sog' qo'yimas.

Slepnyovo, 1914





A.A. AXMATOVA

«O‘ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7144-8-9



9 789943 714489

